

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YUKSALISHIDA TA'LIM SIFATINI  
YANADA OSHIRISH

Nosirova Dilfuza Nabiyevena

*Andijon viloyati Yuridik texnikumi yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi 3 - darajali yurist*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilish, o'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, qisqa fursatda mamlakatimiz ilm-fani sohasiga zamonaviy texnologilarni joriy qilish, yosh avlodning ilmiy-innovatsion faoliyat yuritishi va boshqalar to'g'risida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** *ilmiy-innovatsion, investitsiya, ta'lim, ilm-fan, yosh avlod.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida yangilanayotgan jamiyat talablari bo'lakcha, u fuqarolarni yurt, millat ravnaqi uchun qayg'urishga undaydi, hayotga teran va sergak qarashga da'vat qiladi. So'nggi besh yilda mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z kundalik hayotida teran his etayotgan beqiyos o'zgarish, yangilanish va tub islohatlarga ega bo'lgan davlatni ko'rib bormoqda. Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlar yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamlil va izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xalqimiz Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasini mamlakat hayotida muhim voqea sifatida intiqlik bilan kutadi. Boisi, unda kelgusi yil nomi ham e'lon qilinadi. Prezidentimiz 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qildi.

Demak, Taraqqiyot strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning navbatdagi yilida insonga e'tibor va sifatli ta'lim masalalari eng ustivor vazifalarimizdan biriga aylanadi. Aslida—ku, so'nggi yillarda hayotga joriy etilayotgan barcha islohotlarning markazida Inson qadri turibdi, uning manfaatlari eng oliy mezon deb qaralmoqda. Shu ma'noda olib ko'rilganda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da mazkur qadriyatlar ma'no va mazmun jihatdan uzviy davom ettiriladi, ham ma'no, ham mazmun jihatdan yanada boyiydi.

Misol uchun, Prezidentimiz o'z murojaatida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir!", deb ta'kidlab o'tdi. Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilishi, o'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Ilm-fanni 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni orqali 2025 yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030 yilgacha esa 10 baravarga oshirish belgilab berildi. Buning natijasida qisqa fursatda mamlakatimiz ilm-fani sohasiga zamonaviy texnologilarni joriy qilish, yosh avlodning ilmiy-innovatsion faoliyat yuritishini to‘laqonli qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yaratilmoqda.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta‘lim tizimini isloh qilish, sifatli ta‘lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta‘limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu vazifalar ta‘lim ustidan adolatli boshqaruv va universal nazorat tizimini rivojlantirish va mavjud shakllarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta‘lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish maqsadida nazorat va boshqaruv jarayonini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarida ta‘lim sifatini ta‘minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ta‘lim muassasasining sifat menejmenti ta‘limni tashkil etish, ta‘minlash va boshqarish jarayonini o‘z ichiga olgan va asosan o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimdir. Ta‘lim sifatini yaxshilash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan tadqiqotchilarning fikricha, “Ta‘limda menejmentning maqsadi talabalarning umumiy boshqaruv nazariyasi bo‘yicha bilim saviyasini oshirish, ularda bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishdan iborat”. Boshqacha qilib aytganda, asosiy e‘tibor talabalarning bilimini oshirish, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilishi kerak. Ta‘lim muassasalarida ishning qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, boshqaruv modelining to‘g‘ri tanlanganligi, ta‘lim sifatini oshirishda menejmentning adolatli tashkil etilganligi ta‘lim samaradorligiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat ta‘lim tizimi uchun xalqaro tajribalardan kelib chiqib menejment mexanizmlari ishlab chiqilib, ular orqali ta‘lim muassasalarini attestasiyadan o‘tkazish va monitoring qilish amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda davlatimizning Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotganligi hamda dunyo davlatlarining Yangilanayotgan O‘zbekistonimizni o‘rganishga yanada qiziqishi ortayotganligida mahalliy oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘limning sifati, unda ta‘lim menejmentining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham yurtimizda bugungi kunda davom etayotgan jadal islohatlar davrida, progressev fikrlaydigan va salohiyatli yosh kadrlarga katta e‘tibor qaratilib, siyosiy jabhalarga va strategik muhim sohalarga jalb qilinmoqda. Yangi O‘zbekistonda fuqarolar jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi jadal o‘zgarib hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyatlar va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko‘proq talaba-yoshlar his qilmoqda. Jumladan, “iqtisodiy faoliyat erkinligi”, “so‘z erkinligi”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik” singari demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar hozirgi kunda real voqelikka aylanib



borayotganligi albatta, har bir yoshni e'tiborini o'ziga tortadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Muhabbat H., Bazarova U. M., Mirzaeva M. N. Opportunities for innovation technologies in higher education //International journal on integrated education (IJIE) Indonesia. – 2020. – №. 12.
2. Xakimova M. F. Axborot ta'lim muhitida innovatsiya va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – S. 149-152.
3. Xakimova M. Ta'lim muassasalariga innovatsiyalarni kiritishning zarurligi //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №1.
4. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/13696>
5. <file:///C:/Users/user/Downloads/o-zbekiston-taraqqiyotining-yangi-bosqichga-ko-tarishda-oliy-ta-lim-sifatini-oshirish.pdf>
6. Nosirova, Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT MOHIYATI VA YOSHLARNING OILA QURISHGA ZAMONAVIY MUNOSABATI." Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot 1.22 (2022): 17-21.
7. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "The Essence of Family Communication and Historical Processes." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1.3 (2022): 41-46.
8. Nosirova D. N. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 272-276.
9. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI." (2022).
10. Nosirova, Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA." O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1.3 (2022): 19-23.
11. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 2.12 (2022): 265-269.
12. Nabiyevna, N. D. (2023). Quality Education is the Foundation of Our Future. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 229-233.
13. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 4.3 (2023): 34-39.
14. Nabiyevna N. D., Sobirovna K. N. IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES //Conferencea. – 2022. – C. 46-

48.

15. Nosirova, Dilfuza Nabiyevna. "FAN, IQTISODIYOT VA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELLEKT." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5-2 (2022): 923-927.

16. Nosirova D. N. YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 141-144.

17. Nabiyevna, Nasirova Dilfuza. "Human Value and the Future of Our People Depend on Quality Education." *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies* 2.3 (2023): 14-18.

18. Nosirova, Dilfuza. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISH YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILIDIR." *Наука и технология в современном мире* 2.8 (2023): 48-52.

19. Nosirova D., Nasirdinov S. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA ULAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 50-52.

20. Nabiyevna N. D. 30 APREL KUNI BULADIGAN REFERENDUMGA BEFARQ EMASMAN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 285-290.

21. Nabievna N. D. DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE IDEAS FOR THE INTRODUCTION OF PROPOSALS AND INNOVATIONS FOR THE IMPROVEMENT OF FOREIGN LANGUAGES, WIDE INVOLVEMENT OF INTERESTING AND INTERACTIVE METHODS ON FOREIGN LANGUAGES //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 104-108.

22. Nabiyevna N. D., Muhammadaziz D. MEN REFERENDUMGA BEFARQ EMASMAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 79-81.

23. Nabievna, N. D., & Madinabonu, K. (2023, April). THE SYSTEM OF PROGRAMS CARRIED OUT TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 136-139).

24. Nabiyevna, N. D. (2023). SAYLOV-2023. YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGI-XALQ TANLOVIGA BOG'LIQ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 1089-1092.

25. Nabiyevna, N. D. (2023). 2023-YIL 9-IYUL KUNI BO'LADIGAN SAYLOVDA FAHR BILAN SH. M. MIRZIYOYEVGA OVOZ BERAMAN. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(15), 224-227.

26. Nabiyevna, N. D. (2023). ZAMONAVIY JAMIYATDA OILAVIY

QADRIYATLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 294-298.

27. Nabiyevna, N. D. (2023). XORIJIY TILLARNI BILISH-DAVR TALABIDIR. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 494-498.

28. Nabiyevna N. D. ZAMONAVIY JAMIYATDA OILAVIY QADRIYATLAR //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 294-298.